

MUSIQA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

*Nurboyeva Mahliyo Amaliddinovna
Toshkent davlat Pedagogika universiteti
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ta'lim sohasini yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahmiyatini oshirish va yosh avlodni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash oliy maqsadlardan biri etib belgilandi. Kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim mакtablari musiqa ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi.

Kalit so'zlar: Musiqiy ta'lim, modernizatsiya, axborot texnologiyalari, innovatsiya, multimedya, Internet, cholg'u ijrochiligi, axborot resur markazlari, metod, axborot komunnikasiya.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi na'munalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahmiyatini oshirish va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash oliy maqsadlardan biri etib belgilandi.

Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 28-noyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarorida madaniyat va san'atning barcha sohalari kabi musiqa ijrochiligini rivojlantirish, 2022-yil 2-fevraldagagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-112-sonli qarorida ham aniq vazifalar belgilab berilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab

o'tganidek "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Barchamizga ma'lumki, XXI asr yuksak axborot-texnologiyalar davri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish, ta'lim jarayoni sifati va natijadorligini oshirish maqsadida axborot telekommunikasion texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Kun sayin barcha sohalar amaliyatiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiyligi ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib bermoqda. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Umumiyligi ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar oldida keng imkoniyatlar ochdi. Har bir o'qituvchi albatta unga davlat, jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar asosida o'z kasbining xususiyati, maqsad vazifalarini yuqori darajada tushunmog'i lozim. U ilmiy va ilmiy-uslubiy izlanishlar jarayonida mutaxassislik fanlarini to'la-to'kis egallagan va bu fanlarni yuqori darajada o'quvchilar ongiga singdira olishi, usul va metodlardan foydalangan holdagini o'z kasbining bilimdoniga aylanishini chuqr xis qilib, muntazam ravishda o'z ustida ishlashi lozim.

Prezident qarori bilan 2022-2023-o'quv yilidan boshlab umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. Musiqa fani o'qituvchilarining milliy cholg'ulardan kamida bittasini, 2023-2024-o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo'lish majburiy hisoblanadi. Maktablarni notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa madaniyatimiz va san'at sohasini yanada ravnaq topishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

O'quvchilarning musiqa mashg'ulotlari va cholg'u ijrochiligi fanini o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonida keng qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet", "Ziyonet" va boshqa axborot resurs tarmoqlari,

maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari shuningdek, darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi. Bunday dasturlar yordamida o'quvchilar turli mamlakatlar va davrlarning kompozitorlari ijodi bilan tanishisb, ularning tarjimai hollarini bilishi, kompozitor va bastakorlar yaratgan musiqa asarlari to'g'risida ma'lumot olishi, musiqiy san'atning turli janrlari, musiqachilar va musiqa cholg'ulari haqida keng bilim olish imkoniyatlarini yaratib beradi. Ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiya vositalaridan foydalanish tafakkurning vizual-majoziy va nazariy turlarini rivojlantirishni boshlaydi. Talabalarning ijodiy, intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Axborot texnologiyalari imkoniyatlari boshqa va boshqa musiqa fanlarini o'qitishda ham o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Musiqada kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi istiqbolli, dolzarb va ob'ektiv zarurdir. Axborot kompyuter texnologiyalaridan malakali va tizimli foydalanish talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarga vaqt ni yanada samarali taqsimlash, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnda shuni aytib o'tish joizki Axborot texnologiyalari musiqa va unga aloqador mavzular uchun o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari vositalari, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish musiqa fanlarini o'qitishda ham bilim olish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Musiqa ta'limida kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi istiqbolli, dolzarb va ob'ektiv zarur bo'lib, ulardan malakali va tizimli foydalanish talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilarga vaqt ni yanada samarali taqsimlash, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratib beradi.

References

- 1.Sh.Mirziyoyev "Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" 2016-yil.
- 2.O.Matyokubov "Og'zaki an'anadagi professional musiqaga kirish".T.1985.
- 3.Qodirov R. G. "Musiqa psixologiyasi" T: Musiqa. 2005- yil.
- 4.Toshmatov O', Beknazarov X. "Cholg'shushunoslik" – T.: Darslik 2015.